

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlar.....	106
-----------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 327.54:327.52:338.24

**AFG'ONISTON VA ERONNING SOVET DAVLATI BILAN IQTISODIY SOHADAGI
MUNOSABATLARINING QISQACHA MAZMUN VA MOHIYATI****КРАТКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ХАРАКТЕР ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ
АФГАНИСТАНА И ИРАНА С СОВЕТСКИМ ГОСУДАРСТВОМ****BRIEF CONTENT AND NATURE OF THE ECONOMIC RELATIONS OF AFGHANISTAN
AND IRAN WITH THE SOVIET STATE**

Umarov Muxammadaziz Akramjon o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1918-1924 yillarda sovet hokimiyatining Afg'oniston hamda Eron mamlakatlari bilan munosabatlarida Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasining o'rnini xususida ma'lumotlar berilgan. Mazkur munosabatlarning mohiyati va ularning xususiyati yo'nalishlari tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilingan.

Аннотация

В данной статье представлены сведения о роли Туркестанской АССР в отношениях советского правительства со странами Афганистана и Ирана в 1918-1924 гг. Сущность этих отношений и их характеристики изучаются с исторической точки зрения.

Abstract

This article provides information about the role of the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic in the relations of the Soviet government with the countries of Afghanistan and Iran in 1918-1924. The essence of these relations and their characteristics are studied from a historical point of view.

Kalit so'zlar: sovet hukumati, diplomatik, siyosiy, iqtisodiy aloqalar, TASSR, xalqaro savdo munosabatlar, delegatsiya, BXSР, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, RSFSR, muxtoriyat, Tashqi savdo komissarligi.

Ключевые слова: Советское правительство, дипломатические, политические, экономические отношения, ТАССР, международные торговые отношения, делегация, СССР, ВЦИК, РСФСР, автономия, Наркомат внешней торговли.

Key words: Soviet government, diplomatic, political, economic relations, TASSR, international trade relations, delegation, USSR, All-Russian Central Executive Committee, RSFSR, autonomy, Foreign Trade Commissariat.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida davlatlarning siyosiy, iqtisodiy munosabatlari xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etishi namoyon bo'lmoqda. Xalqaro munosabatlarda davlatlar tashqi siyosatining o'rnini tobora dolzarblik kasb etmoqda. Natijada xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, siyosiy, iqtisodiy aloqalarning ilmiy jihatdan chuqur va atroflicha o'rganish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Hamda unga mos ravishda xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat savdo aloqalarining tarixiy ildizlarini mintaq, hudud, davrlar kesimida tadqiq etish bugungi kunning zaruriyatiga aylanmoqda.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishimiz lozim" [1;25].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shuni qayd etish zarurki, mazkur davrdagi adabiyotlarni tahlil etishda bir qancha dissetatsiyalarda xolis aks ettirilgan. Xususan, D.P.Kamolov, A.A.Yermetov, S.A.Xoshimov, Sh.Sh.Choriyev [2] kabi mualliflarning dissetatsiyalarida Turkiston ASSR haqida qimmatli faktologik ma'lumotlarni o'z ichiga olishi bilan ajralib turadi. Ushbu mualliflarning dissetatsiyalarida Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasida sovet sud tizimining shakllanishi tarixiga oid fikrlar, nazorat

TARIX

organlari va ularning totalitar tuzum o'rnatilishidagi o'rni, Turkiston o'lkasidagi ishchi dehqon militsiyasi va ishchi-dehqon inspeksiyasining tuzulishi va ularning faoliyati tarixi, TASSR hamda O'zSSRning Moskvadagi muxtor vakolatxonalari tarixi yoritilganligiga guvoh bo'ldi. Shuningdek, milliy arxiv ushbu davlatdagi iqtisodiy jarayonlarni yorituvchi manba ekanligi ochib berilgan. Lekin yuqorida keltirilgan mualliflarning birortasida aynan Turkiston ASSRning tashqi iqtisodiy masalalariga bag'ishlangan jihatlari qayd etilmagan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, xalqaro munosabatlarda mamlakat ishtirokini ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, tashqi siyosat va diplomatik aloqalarini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarga keng yo'l ochilib, barcha sohalarda rivoj topdi. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatda olib borgan tinchlik siyosati mamlakat nufuzini xalqaro maydonda ortishiga xizmat qildi.

O'zbekiston hududi asrlar mobaynida savdo yo'llarining muhim chorrahasi joylashgani manbalarda qayd etilgan. O'zbekiston tarixining qaysi bosqichi bo'lmasin savdo-sotiq munosabatlari aholi hayotida muhim rol o'ynagan. Xususan, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ham Turkiston o'lkasi qo'shni davlatlar bilan qizg'in savdo munosabatlari olib borgan. Hamda ularning o'zaro iqtisodiy aloqalarida vositachilikni amalga oshirgan.

XX asr birinchi choragida Rossiya imperiyasida fevral hamda oktabr inqiloblari bo'lib o'tdi. Oqibatda, podsho hokimiyati ag'darildi. Hamda bolsheviklar zo'rvonlik asosida o'z hokimiyatlarini barpo etdilar. Shuningdek, bolsheviklarga qarshi bo'lgan har qanday qarshi kuchlarga keskin tazyiq o'tkazdilar. Natijada Turkiston o'lkasida mahalliy demokratik kuchlar sayi harakati bilan yangi mustaqil davlat "Turkiston muxtoriyati" tashkil topdi. Lekin bu davlat bolsheviklarning qurolli hujumi oqibatida atiga 72 kun yashadi, xolos. Qo'qondagi muxtoriyat hukumati yo'q qilingach, bolsheviklar butun o'lkada hukmronlikni qo'lga oldilar. 1918-yil 30-aprel kuni o'lkada Turkiston ASSR tashkil etildi [3;8].

Turkiston ASSR 1918-1924 yillar oralig'ida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarida bolsheviklar manfaatida yo'lida faoliyat olib bordi. Ayniqsa, iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar keskin yuz berdi. Bu borada Turkiston ASSRning tashqi iqtisodiy islohotlari alohida o'rin egallaydi.

TASSR mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini to'xtatmadi. Xususan, Eron hamda Afg'oniston bilan xalqaro munosabatlarda O'rta Osiyo davlatlari orqali amalga oshira boshladi. Ushbu davrda sovet-eron va sovet-afg'on munosabatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

1918-1924 yillar sovet tashqi siyosatining shakllanishi va faoliyatini yo'lga qo'yish davri bo'ldi.

Sovet hokimiyatining tashqi aloqalari shaxsan bolsheviklar rahbari V.I.Lenin ta'sirida bo'lgan. Jumladan, tashqi ishlar komissari G.V.Chicherin o'zining "Lenin va tashqi siyosat" maqolasida V.I.Leninning Sharq mamlakatlariga nisbatan tashqi siyosatiga katta e'tibor qaratganligi haqida yozgan. Xususan G.V.Chicherin shunday yozadi: "Vladimir Ilich bizning Sharq siyosatining har bir qadamiga katta qiziqish bildirganligi haqida hech narsa aytilmaydi. Uning birinchi Afg'oniston favqulodda missiyasi bilan uzoq uchrashuvini eslayman... Turkiya bilan Moskva konferensiyasi chog'ida Vladimir Ilich har oqshom telefon orqali mendan o'sha kuni nimalar qilinganligi va bu muzokaralar taqdirini qanchalik katta qiziqish bilan qabul qilgani haqida so'raganini yana eslayman. U Fors hukumati bilan do'stona munosabatlarga kirishish siyosatini qat'iyat bilan olib bordi" [4;7]. Ayni paytda RSFSR tarkibidagi O'rta Osiyo respublikalarining ulardagi ishtiroki nuqtai nazaridan ko'rib chiqilayotgan Sovet davlati bilan Afg'oniston va Eron o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish, yo'lga qo'yish muammosi siyosiy ahamiyat kasb etgan.

Turkistonda Sovet hokimiyatining o'rnatilishi hukmron mafkura va hokimiyatning olib borgan chora-tadbirlari Afg'oniston va Eronda hukumatga qarshi kurashning kuchayishiga ta'sir ko'rsatdi.

RSFSRning Eron va Afg'oniston bilan munosabatlarida TASSR muhim rol o'ynagan [5]. Sovet davlati rahbarlarining 1917-yildan 1924-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrda Afg'oniston va Eron hukumatlari bilan diplomatik yozishmalari keng yoritilgan. Shuningdek, "Tashqi siyosat hujjatlari"dagi diplomatik yozishmalar va NKIDdagi ko'plab hujjatli nashrlarda mavjud bo'lgan materiallar Sovet hukumati Sharq mamlakatlari bilan o'z munosabatlarini teng huquqlilik, bu

mamlakatlarning suverenitetini hurmat qilish va ularning mustaqil iqtisodiy va siyosiy yashash huquqini tan olish tamoyillari asosida qurganligini ishonchli tarzda ko'rsatadi.

Hatto ushbu hujjatlarni tayyorlashda Toshkent shahrida joylashgan muassasa (ombor)lardagi ko'plab arxiv hujjatlaridan foydalanilgan. O'zbekiston Milliy arxividan olingan materiallar shular jumlasidandir.

Tashqi siyosat hujjatlarini tayyorlashda O'zbekiston milliy arxividagi: Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi fondi, Turkrespublika Xalq Komissarlari Soveti fondi, BXSRR Inqilobiy Qo'mitasi, BXSRR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi fondlari ko'rib chiqilgan. Bu fondlardan olingan materiallar orasida Turkrespublika va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi – bir tomondan, Eron va Afg'oniston – ikkinchi tomondan, – siyosiy va iqtisodiy munosabatlarini tavsiflovchi bir guruh arxiv hujjatlari mavjud. Ushbu hujjatlar Sovet O'rta Osiyo respublikalari hukumatlarining Yaqin Sharqdagi qo'shni davlatlar bilan tinch, yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini o'rnatishga intilishidan dalolat beradi. Shuningdek, arxiv hujjatlaridan TASSR, BXSRR hukumatining Afg'oniston bilan diplomatik yozishmalarida foydalanilgan. Masalan, 1922-yil 16-sentabrdan 1922-yil 31-dekabrgacha bo'lgan muddatga chet eldan olib kirishga ruxsat etilgan mahsulotlar ro'yxati quyidagi jadvallarda [6;1,3] keltirilgan:

TASSRga Erondan olib kirishga ruxsat etilayotgan mahsulotlar (1-jadval)

Mahsulotlar nomi	Eron							
	Davlat muassasi		Hamkorlik		Xususiy shaxs		Jami	
	Vazni	Narxi	Vazni	Narxi	Vazni	Narxi	Vazni	Narxi
Bug'doy	-	-	5000	5000	-	-	5000	5000
Kartoshka	3200	800	1650	413	770	193	5620	1406
Choy	-	-	200	11400	1050	55600	1250	67000
Ko'knori urug'i	-	-	2000	1335	-	-	2000	1335
Paxta	12000	75000	-	-	-	-	12000	75000
Ishlov berilmagan teri	-	-	-	-	-	-	-	-
Gilamlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Jami	15200	75800	8850	18148	1820	55793	25870	49741

Yuqoridagi jadvalda aks etganidek, oziq-ovqat paxta mahsulotlari o'lkaga olib kiritilgan. Lekin Eron hududidan ishlov berilmagan teri hamda gilamlar na davlat, na hamkorlik, na xususiy shaxslar tomonidan olib borilmagan. Shu bilan birga, jadvaldagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, yuborilgan paxtaning ham davlat muassasasi tomonidan amalga oshirilishi xususiy shaxslar, hamkorlik orqali keltirilganidan dalolat beradi.

TASSRga Afg'onistondan olib kirishga ruxsat etilayotgan mahsulotlar (2-jadval)

Mahsulotlar nomi	Afg'oniston							
	Davlat muassasi		Hamkorlik		Xususiy shaxs		Jami	
	Vazni	Narxi	Vazni	Narxi	Vazni	Narxi	Vazni	Narxi
Bug'doy	-	-	-	-	-	-	-	-
Kartoshka	-	-	-	-	-	-	-	-
Choy	-	-	-	-	-	-	-	-
Ko'knori urug'i	-	-	-	-	-	-	-	-
Paxta	-	-	-	-	20	240	20	240
Ishlov berilmagan teri	-	-	-	-	1120	10000	1120	10000
Gilamlar	-	-	-	-	2	600	2	600
Jami					1142	10840	1142	10840

Ushbu jadvalda esa, TASSRga Afg'oniston hududi orqali paxta, ishlov berilmagan teri hamda gilamlar davlat muassasasi, hamkorlik orqali emas, faqatgina xususiy shaxslar tomonidan keltirilgani e'tiborga loyiq. Ammo bu hududdan bug'doy ham, kartoshka ham, choy ham, ko'knori urug'i ham yuborilmagani O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlarida aks etgan.

Turkiston Sovet Respublikasi hukumati va Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, RSFSR Xalq Komissarlari Soveti komissiyasi huzuridagi Tashqi savdo boshqarmasining Turkiston Sovet Respublikasi va Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Kengashining faoliyatini tavsiflovchi

TARIX

hujjatlardan Turkistonning qo'shni davlatlari bilan savdo-sotiqni tashkil qilishda keng foydalanilgan. BXSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi fondida hukumat tomonidan Buxoro-Afg'oniston chegarasi orqali RSFSR va Afg'oniston o'rtasidagi savdoni tiklash, respublika hududida sovet-afg'on savdosini yo'lga qo'yish uchun chora-tadbirlar, hamda hududga Buyuk Britaniyaning aylanma yo'llar bilan mahsulotlarni kirib kelishini oldini olish bo'yicha ma'lumotlar mavud edi.

TASSR va yaqin sharq mamlakatlari savdoni tiklash bo'yicha tayyorlangan hujjatlarda qimmatli arxiv hujjatlari saqlanadi.

1920-yil boshida Turkrespublika bilan Eron va Afg'oniston o'rtasida u yoki bu tizimli tovarlar almashinuvi boshlangan. TASSR hukumati tomonidan Markaziy xalq xo'jaligi kengashi qoshida tashqi savdo boshqarmasi tuzilib, u tez orada Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi komissiyasi va Turkiston ishlari Xalq Komissarlari Soveti tasarrufiga o'tkazildi. Ayni masalaga mos arxiv hujjatlari RSFSR Mehnat va Mudofaa Soveti, Tashqi Savdo Komissarlari va Turkrespublika Xalq Komissarlari Sovetining O'rta Osiyo orqali Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiqni rivojlantirish to'g'risidagi qarorlarini keng ifodalaydi. Shuningdek, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasining Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasining qo'shni davlatlar bilan savdo ayirboshlash usullari va shakllarini tashkil etish to'g'risidagi qarorlari ham bor.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Sovet hukumati bevosita Eron hamda Afg'oniston bilan munosabatlarga kirishmagan. Mos ravishda O'rta Osiyo hududidagi mavjud respublikalardan jumladan, TASSR, BXSR dan unumli foydalangan. Boshqacha aytganda TASSR va BXSRning yaqin sharq mamlakatlari bilan aloqalari sovet hukumati manfaatlariga bo'ysundirilgan. Sovet hukumatining Yaqin Sharq bilansavdo munosabatlarining faollashuviga TASSR va BXSR ijobiy ko'rsatgan. Shuningdek, TASSR va BXSR hududlaridagi aholining mavjud savdo sotiqdagi an'ana va tajribalari ayniqsa muhim rol o'ynagan.

Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumot va tahlillar asosida quyidagi takliflarni zarur deb hisoblanadi:

Mazkur davrning tashqi iqtisodiy masalalari bilan bog'liq bo'lgan manba hamda materiallarni yanada kengroq o'rganish;

O'rganish natijasida olingan xulosalardan O'zbekiston Respublikasining savdo-sotiq munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun taklif berish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдевори. – Т.: Tasvir, 2021. Б. 36.
2. Комолов Д.П. Туркистон АССР суд тизими тарихи (1917-1924 йиллар). Дисс. ... тарих фан номзод. – Т., 2008; Ерметов А.А. Туркистон АССРда назорат органлари ва уларнинг тоталитар тузум ўрнатилишидаги ўрни (1918-1924). Дисс. ... тарих фан номзод. – Т., 2006; Хошимов С.А. Туркистон АССР ва Ўзбекистон ССРнинг Москвадаги мухтор ваколатхоналари тарихидан (1918-1991 йиллар). Дисс. ... тарих фан номзод. – Анд., 2001; Чориев Ш.Ш. Ўзбекистон Республикаси марказий давлат архиви жамғармалари - Туркистон АССРдаги иқтисодий жараёнларни ёритувчи манба сифатида. Дисс. ... тарих фан номзод. – Т., 2018.
2. O'zR MA. F – R17, ro'yxat – 1.
3. Чеботарёва В.Г. Из истории Взаимоотношений СССР со странами сопредельного Среднего Востока. – Т.:1963, 330.
4. Документы внешней политики СССР, т. I.
5. O'zR MA. F – R18, ro'yxat – 2, yig'majild – 33a.